

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**“TASDIQLAYMAN”**

**Toshkent davlat iqtisodiyot  
universiteti ilmiy ishlar va  
innovatsiyalar bo‘yicha prorektori  
G. Abduraxmanova**



“ ”

2026 yil

**08.00.04 — “Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti”**

ixtisosligi bo‘yicha tayanch doktoranturaga kirish imtihoni


**D A S T U R I**

**TOSHKENT – 2026**

Dastur Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining 2026 yil "26.08" 1-dagi Kengashida muqokama qilingan va tasdiqlangan

Dastur Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Biznes boshqaruv va logistika" kafedrasining 2026 yil "27.08" dagi " " – sonli majlisida muhokama qilingan va tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri:



B.O.Tursunov

Tuzuvchilar:

i.f.d., prof. B.O.Tursunov

i.f.d., prof. Ya.E.Aliyev

Taqrizchilar:

TIQXMMI milliy tadqiqot universiteti "Iqtisodiyot" kafedrasini professori, iqtisodiyot fanlari doktori S.R.Umarov

TDIU "Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes" kafedrasini professori, iqtisodiyot fanlari doktori B.T.Salimov

## KIRISH

Mamlakat iqtisodiyotida qishloq xo'jaligining ahamiyati ulkan. Chunki unda respublika yalpi ichki mahsulotining uchdan bir qismiga, oziq-ovqat mahsulotlarining 95-97 foizga yaqini yaratilmoqda. Davlat miqyosidagi jami valyuta tushumining yarmidan ortig'i qishloq xo'jalik mahsulotlarini eksport qilish hisobiga olinmoqda. Endilikda qayta ishlash sanoatining yuksalishi, aholi sonining o'sishi, tashqi bozor talabining o'zgarishi ekologik talablarga javob beradigan qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish jarayonlari yanada rivojlantirilishini ob'ektiv ravishda taqazo etmoqda. Shuning uchun ham tarmoqni rivojlantirish va samaradorligini yuksaltirish zarur.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev o'zining "Yangi O'zbekiston strategiyasi" asarida "Qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadlarini kamida 2 barobar oshirish, qishloq xo'jaligining yillik o'sish sur'atlarini kamida 5 foizga yetkazish rejalashtirilmoqda" deb ta'kidladi<sup>1</sup>.

Jumladan, kelgusida qishloq xo'jaligida davlat aralashuviga to'liq barham berilib, mahsulot ishlab chiqarishni sanoat bosqichiga olib chiqish ko'zda tutilgan". Bu masalalarning ilmiy hamda amaliy asoslarini yaratishda, rivojlantirishda, ularni ishlab chiqarishga joriy etishda qishloq xo'jaligining o'ziga xos, xalqimizning milliy xususiyatlarini e'tiborga olish zarur.

Qishloq xo'jaligini bozor iqtisodiyoti qonunlari talablari darajasida rivojlantirish uchun tarmoqda erkin faoliyat ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lgan turli xildagi mulk va mulkchilik shakllarining, ularga asoslangan tadbirkorlik turlari va ular o'rtasidagi erkin bozor munosabatlarining nazariy, uslubiy asoslarini teranlashtirish, takomillashtirish, investitsiyalarni ko'proq jalb etib, fan-texnika yutuqlarini, yangi texnikalarni, ilg'or texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish, cheklangan yer va suv resurslaridan, doimiy va o'zgaruvchi kapitaldan hamda mehnat resurslaridan qisqa va uzoq muddatlarda to'liq va samarali foydalanish yo'llarini aniq belgilash, barcha xarajatlarni tejash, mehnat unumdorligini yuksaltirish, ishchi-xizmatchilarni rag'batlantirish tizimini takomillashtirish negizida foyda summasini ko'paytirish yo'llarini asoslangan holda belgilab olish maqsadga muvofiqdir.

---

<sup>1</sup> Sh.M.Mirziyoyev Yangi O'zbekiston strategiyasi. –Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021 y. 464 bet.

## **Asosiy qism**

### **1. Agrar iqtisodiy islohotlar va ularning asosiy yo'nalishlari**

Respublika agrar iqtisodiy islohatlarni amalga oshirish siyosati konsepsiyasi va prinsiplari. Agrar-iqtisodiy islohatlarni amalga oshirish bosqichlari. Agrar sohani rivojlantirishga qaratilgan maqsadli dasturlarni amalga oshirish. Qishloq xo'jaligida boshqaruv tizimining shakllanishi va faoliyat ko'rsatishi. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni boshqarish strukturalari va funksiyalari. Agrosanoat tuzilmalarida boshqarishni tashkil etish. Yer islohoti, uning amalga oshirilishi. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish. Moliya, kredit, soliq va baholar islohoti.

Qishloq xo'jaligining respublika iqtisodiyotidagi o'rni va ahamiyati. Agrar islohotlarni ustuvor yo'nalishlari. Qishloq xo'jaligini joylashtirish ijtimoiy mehnat taqsimotining muhim shakli ekanligi. Jahon, respublika qishloq xo'jaligini maqsadga muvofiq joylashtirishning, rivojlantirishning zarurligi hamda mumkinligi. Bu borada hukumatning siyosati. Qishloq xo'jaligini joylashtirish haqida tushuncha, uning maqsadi va tamoyillari. Qishloq xo'jaligini ixtisoslashtirish haqida tushuncha, hozirgi davrda uning maqsadi, vazifalari, tamoyillari. Ixtisoslashtirish turlari, ularning samaradorligi.

### **2. Respublika agrosanoat majmuasi, uni rivojlantirish imkoniyatlari**

O'zbekiston Respublikasining agrosanoat majmuasini barpo etishning zarurligi, mumkinligi. Uning huquqiy, tashkiliy va iqtisodiy asoslari. Ularning holati, muammolari. Respublika agrosanoat majmuasining maqsadi, vazifalari hamda tarkibi, bo'g'inlari. Majmua tarkibidagi bo'g'inlarning maqsadi, vazifalari, ularning hal etilish yo'llari. Bo'g'inlararo tashkiliy, tarkibiy, iqtisodiy uzviy bog'liqlik. Mamlakat agrosanoat majmuasi tarkibidagi tarmoqlar uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqaruvchi tarmoqlar, ularning o'ziga xos xususiyati maqsad hamda vazifalari, ularni hal etish yo'llari.

Qishloq xo'jaligi agrosanoat majmuasining asosiy va markaziy bo'g'inligi. Tarmoqning maqsadi, vazifasi, uni hal etish masalalari. Agrosanoat majmuasi tarkibidagi tarmoqlarga, ayniqsa, qishloq xo'jaligini rivojlanishini ta'minlashga xizmat ko'rsatuvchi bo'g'in, uning tarkibi, maqsadi hamda vazifalari. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi va ish mahsulotlarini iste'molchilarga yetkazib beruvchi bo'g'in, uning tarkibi, maqsad va vazifalari. Majmua tarkibidagi tarmoqlararo huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar, ularning erkin bozor munosabatlari talabiga mosligi.

### **3. Qishloq xo'jaligida mulk va tadbirkorlik shakllari, ularning bozor rivojlanishi**

Qishloq xo'jaligida bozor iqtisodi sharoitida turli xildagi mulkchilik turlarini barpo etishning zarurligi. Mulkiy islohotlar. Turli shakldagi mulk turlarining

shakllantirilishi. Jamoa, xususiy, shaxsiy, davlat va aralash mulk turlari. Qishloq xo'jaligida tadbirkorlik shakllari. Mulkiy munosabatlar. Erkin bozor iqtisodi talablari va chet el tajribalari.

Xususiy va shaxsiy mulk unga asoslangan tadbirkorlik shakllari. Qishloq xo'jaligidagi xususiy va shaxsiy korxonalar. Dehqon, tomorqa va fermer ho'jaliklari hamda agroklastlar mulklari. Ularning hozirgi davrdagi holati qishloq xo'jaligidagi qo'shma mulk va unga asoslangan qo'shma korxonalar. Chet eldagi ilg'or tajribalar. Davlat mulki va unga asoslangan xo'jaliklar. Qishloq xo'jalik kooperativlari, (agrofimlar). Qishloq xo'jaligida ko'p ukladli iqtisodiyotni shakllanishi, rivojlanishi.

#### **4. Yer-suv resurslari, inqiroz sharoitida ulardan foydalanish masalalari**

Yer-suv resurslarining qishloq xo'jaligidagi ahamiyati va xususiyatlari, ularning maydoni tarkibi, foydalanuvchilar bo'yicha taqsimlanishi. Yerdan, suvdan foydalanish samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar, ularni aniqlash tartibi. Yerdan, suvdan foydalanishni samaradorligi, uni oshirish yo'llari. Yer monitoringi va davlat yer kadastri.

Respublikaning yer-suv fondi. Qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yer-suv resurslari, ularning iqtisodiy – ijtimoiy ahamiyati. Sug'orishga asoslangan dehqonchilik. Yer-suv resurslari, ularning miqdori, turlari, tarkibi. Sug'oriladigan yerlar miqdori, sifati. Yer resurslariga bo'lgan talab, ularning cheklanganligi. O'tish davrida qishloq xo'jaligida shakllanayotgan yer munosabatlari. Yer-suv munosabatlarining huquqiy asoslari. Yer-suv resurslaridan oqilona va samarali foydalanishga oid hukumatning chora-tadbirlari. Yer-suvdan foydalanish darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi. Yer-suv resurslaridan foydalanishning hozirgi darajasi. Qishloq xo'jalik yerlarini baholash. Irrigatsiya va melioratsiya tadbirlarini amalga oshirishda davlatning roli. Yer-suv resurslaridan foydalanish darajasini, samaradorligini oshirish yo'llari. Suvdan foydalanuvchilar uyushmasi. Almashlab ekish, uning tuproq unumdorligi oshishiga ta'siri. Suv islohoti suvdan foydalanishning havza usuli. Yangi yerlarni kompleks o'zlashtirish. Yangi sug'orish usullarini, texnikalarni joriy etish. Yer-suv resurslaridan foydalanishni rag'batlantirish.

#### **5. Qishloq xo'jaligining moddiy-texnika resurslari, fan--texnika taraqqiyoti, innovatsion texnologiyalar va ulardan samarali foydalanish**

Moddiy-texnika resurslari haqida tushuncha, ularning ahamiyati, xususiyatlari va turkumlashtirilishi. Fan-texnika taraqqiyoti, uning yo'nalishlari, samarali texnologiyalar. Qishloq xo'jaligining moddiy-texnika resurslari bilan ta'minlanganlik hamda ulardan foydalanganlik darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar, ularni aniqlash

tartibi. Qishloq xo'jaligining moddiy-texnika resurslarini shakllantirish, bunday vositalar bozori, texnika taraqqiyotini joriy etish, ulardan samarali foydalanish.

Davlatning innovatsion siyosati. Qishloq xo'jaligining moddiy-texnika resurslari haqida tushuncha, ularning ahamiyati, xususiyatlari va turkumlashtirilishi. Innovatsion taraqqiyot. Innovatsion texnologiyalar. Moddiy-texnika resurslarining xususiyatlari. Yer resurslari. Innovatsion taraqqiyotning yo'nalishlari. Fan-texnika taraqqiyotiga oid chet el ilg'or tajribalari. Ilg'or, samarali texnologiyalar bozori. Ilg'or, samarali texnologiyalar turlari. Hozirgi davrda innovatsion texnologiyalar va moddiy-texnika resurslari bozori. Moddiy-texnika resurslaridan oqilona, to'liq va samarali foydalanish. Ilg'or, intensiv texnologiyalarni qo'llash. Moddiy-texnika resurslarini baholanishi. Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashganlik, elektrlashganlik, avtomatlashtirilganlik hamda kimyolashtirilganlik darajasi. Moddiy-texnika resurslaridan foydalanishda. Zamonaviy, samarali, ekologik jihatdan foydali hisoblangan texnikalarni, kimyoviy vositalarni, yoqilg'ilarni, texnologiyalarni yaratish. Innovatsion taraqqiyotni ta'minlash masalalari.

## **6. Qishloq xo'jaligining asosiy va aylanma vositalari, fondlari va ulardan samarali foydalanish**

Asosiy va aylanma vositalar haqida tushuncha, ularning iqtisodiy mazmuni. Qishloq xo'jaligining asosiy va aylanma fondlari, ularning ahamiyati. Doimiy va o'zgaruvchan kapital. Asosiy va aylanma vositalar, fondlarning aktivlarni ishlab chiqarishda qatnashishi bo'yicha guruhlanishi. Asosiy va aylanma vositalarni baholash. Asosiy va aylanma vositalar tarkibi. Asosiy va aylanma vositalardan foydalanish darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar. Hozirgi davrda asosiy va aylanma vositalar bozori. Asosiy vositalar ijarasi. Korxonaning moliyaviy mablag'lari. Aylanma kapital. Chetdan jalb etilgan mablag'lar. Asosiy vositalarning eskirishi. Asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblash usullari. Korxonalarni moddiy-texnika bazasi. Asosiy va aylanma vositalardan foydalanishning hozirgi holati, ulardan foydalanishni yaxshilash, samaradorligini oshirish yo'llari.

## **7. Mehnat resurslari, ularning bozori, ulardan foydalanish va mehnat unumdorligi**

Mehnat va mehnat resurslari. Mehnat resurslarining huquqiy asoslari. Mehnat resurslarini takror ishlab chiqarish. Hozirgi sharoitdagi mehnat bozori. Mehnat resurslaridan to'liq va samarali foydalanish darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar. Mehnat resurslariga bo'lgan talab. Mehnat balansi. Mehnat resurslaridan foydalanishning hozirgi darajasi. Mehnat unumdorligi tushunchasi. Mehnat unumdorligi darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar. Mehnat unumdorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar. Rivojlangan davlatlardagi mehnat unumdorligiga oid ilg'or

yutuqlar. Rivojlanish, inqiroz sharoitida mehnat resurslaridan foydalanishni yaxshilash, mehnat unumdorligini oshirish yo'llari.

### **8. Investitsiyalar manbalari, ularning iqtisodiy samaradorligi**

Investitsiya haqida tushuncha, unig iqtisodiy mazmuni va ahamiyati. Investitsiyaning turlari. Investitsiyalarning huquqiy asoslari. Investitsiya borasidagi davlatning siyosati. Ichki va tashqi investitsiyalar. Investitsiyalardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar. Qishloq xo'jaligida investitsiyalarga bo'lgan talab. Kapital qo'yilmalarni loyihalashtirish. Ichki va tashqi investitsiyalarni jalb etish. Agrar sohadagi investitsion muhit investitsiyalarni qishloq xo'jaligiga jalb etishning hozirgi holati. Irrigatsiya va melioratsiyaga, yangi texnika, samarali investitsion texnologiyalarga, chorvachilikka va boshqa sohalarga sarflayotgan investitsiyalar ularning iqtisodiy, ijtimoiy samaradorligi. Investitsiya sohasidagi qarorlarni qabul qilish strategiyasi. Investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari. Investitsiyalar ko'lamini kengaytirish va samaradorligini oshirish yo'llari

### **9. Qishloq xo'jaligida servis xizmati va uni rivojlantirish yo'llari**

Qishloq xo'jaligida servis haqida tushuncha, uning mazmuni, mohiyati. Qishloq xo'jaligida servisning zarurligi, ahamiyati. Hukumatning qishloqda servisni rivojlantirish borasidagi tadbirlari. Tarmoqdagi servis tizimi. Servis turlari, sub'ektlari. Infratuzilma turlari. Ishlab chiqarish servisi. Qishloq xo'jaligidagi servisning hozirgi holati. Uning muammolari. Servis bo'yicha chet el tajribalari. Qishloq xo'jaligida servisni rivojlantirish masalalari. Tarmoqdagi servisning iqtisodiy-ijtimoiy samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar, ularni aniqlash tartibi.

### **10-mavzu. Qishloq xo'jaligidagi yalpi va o'rtacha xarajatlar, ularni kamaytirish yo'llari**

Qishloq xo'jaligidagi xarajatlar, ularning ahamiyati. Xarajatlar tarkibi, ularning turkumlashtirilishi. Doimiy xarajat. O'zgaruvchan xarajat. Joriy va o'rtacha xarajat. Uzoq va qisqa muddatli xarajat. Qo'shimcha xarajatlar. Ishlab chiqarish. Davr, moliyaviy hamda ko'zda tutilmagan xarajatlar. Qishloq xo'jaligi korxonalarining xarajatlari (turlari bo'yicha) darajasi. Tarmoqda yetishtirilayotgan mahsulotlarning o'rtacha xarajatlari (tannarxi). O'rtacha xarajatga ta'sir etuvchi omillar. Xarajat turlarining mahsulot tannarxidagi salmog'i. Tadbirkorlikda boy berilgan imkoniyatlar. Qishloq xo'jaligida xarajatlarni tejash yo'llari. Qishloq xo'jalik mahsulotlarining tannarx darajasi, dinamikasi va xarajatlarni qisqartirish, mahsulotlar tannarxlarini pasaytirish yo'llari.

## **11. Qishloq xo'jaligining yalpi va tovar mahsuloti, ularning taqsimlanishi va ko'paytirish yo'llari**

Qishloq xo'jaligining yalpi va tovar mahsuloti haqida tushuncha. Tarmoqning yalpi va tovar mahsulotiga bo'lgan talabi. Yalpi mahsulot turlari. Yalpi mahsulotni baholash turlari. Yalpi mahsulotning miqdori va qiymati. Dehqonchilik, chorvachilikning yalpi mahsuloti. Yalpi mahsulotni taqsimlash va sotish yo'llari. Qishloq xo'jalik mahsulotlarining tovarlilik darajasi. Qishloq xo'jalik mahsulotlar bozori. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini birjalarda, ko'rgazmalarda sotish. Yalpi mahsulotini ko'paytirish yo'llari. Ekstensiv va intensiv yo'llar. Qishloq xo'jalik sub'ektlaridagi ichki shartnomaviy munosabatlar. Shartnomalar bajarilish monitoringi.

## **12. Qishloq xo'jalik mahsulotlarining baholari, ularning takomillashtirilishi**

Mamlakatda tovar-pul munosabatlari. Qishloq xo'jaligida qiymat qonunining harakat qilishi. Bahoning iqtisodiy mazmuni, ahamiyati, funksiyalari. Qishloq xo'jaligi mahsulotlariga, xizmatlariga baholarini belgilash tartibi. Qishloq xo'jalik mahsulotlarining, xizmatlarining baholari, ularning amaldagi darajasi, dinamikasi. Ishlab chiqarish resurslari, qishloq xo'jalik mahsulotlari baholari. Sanoat mahsulotlari bilan qishloq xo'jalik mahsulotlari o'rtasidagi mutanosiblik. Dotatsiya va subsidiya. Rivojlanish, inqiroz sharoitida qishloq xo'jaligidagi baholarning takomillashtirish yo'llari.

## **13. Korxonalarning daromadlari, foydalari, ularning taqsimlanishi. Ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi**

Qishloq xo'jaligida korxonalarda takror ishlab chiqarish, uning turlari, ularni korxona ishlab chiqarish hamda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishdagi ahamiyati. Qishloq xo'jaligida yaratilgan yalpi ichki mahsulot, korxonaning yalpi va pul daromadi, ularning ahamiyatini hisoblash tartibi. Daromadlarni hozirgi davrda taqsimlash tartibi, uni takomillashtirilishi. Korxona foydasi haqida tushuncha, uning turlari, ularning ahamiyati va hisoblash tartibi. Yalpi, sof, iqtisodiy foyda. Tarmoqning iqtisodiy samaradorligi haqida tushuncha, uning darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar va ularni aniqlash tartibi. Tarmoqning yalpi ichki mahsulotini, yalpi va pul daromadini, yalpi va sof foydasini o'tish davridagi darajasi, dinamikasi. Qishloq xo'jaligini dehqonchilik, chorvachilik tarmoqlarining hamda mahsulotlarining rentabellik darajasi, dinamikasi. Tarmoqning yalpi ichki mahsulotini, korxonalarning yalpi va pul daromadlarini hamda foydalarini ko'paytirish masalalari.

#### **14. O'simlikchilik tarmoqlari iqtisodi**

O'simlikchilik tarmoqlari. Tarmoqlarda yetishtirilayotgan mahsulotlar. Ularning ahamiyati. O'simlikchilik tarmoqlarining rivojlanishi. Iqtisodiy samaradorlik darajasi ko'rsatkichlar. Ekinlarga, mahsulotlarga iqtisodiy baho berish tartibi. Bozor sharoitida o'simlikchilik tarmoqlarini rivojlantirish masalalari. Ekinlar diversifikatsiyasi. Donchilik, paxtachilik, sabzavotchilik tarmoqlari iqtisodi, talabni e'tiborga olgan holda ularni rivojlantirish yo'llari.

#### **15. Chorvachilik (qoramolchilik, qo'ychilik, echkichilik) tarmoqlari iqtisodi**

Chorvachilik tarmoqlari. Chorvachilik borasidagi davlatning siyosati. Tarmoqlarda yetishtirilayotgan mahsulotlar. Ularning ahamiyati. Chorvachilik tarmoqlarining rivojlanishi. Chorvachilik mahsulotiga bo'lgan talab. Chorvachilik mahsulotlarining iqtisodiy samaradorlik darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar. Tarmoqning rivojlanishining hozirgi holati. Qo'ychilik, qoramolchilik, parrandachilik iqtisodi. Kelajakda chorvachilik tarmoqlarini rivojlantirish masalalari.

#### **16. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi tarkibini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari yuzasidan tadqiqotlar olib borish**

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi tarkibini takomillashtirishning ilmiy-nazariy asoslari va bozor sharoitida uning o'zgarish tendensiyasi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish tarkibini takomillashtirishning ilmiy-nazariy asoslari va o'ziga xos xususiyatlari. Bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi tarkibiy o'zgarishining ob'ektiv zaruriyati va tendensiyasi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish tarkibini takomillashtirish bo'yicha xorijiy tajribalardan foydalanishning roli va ahamiyati.

#### **17. Fermer xo'jaligining tashkiliy, iqtisodiy va huquqiy asoslari**

Fermer xo'jaligi tushunchasi, maqsadi, vazifasi, faoliyati va uning yo'nalishlari. Fermer xo'jaligini tashkil etish. Fermer xo'jaligining tashkiliy, huquqiy va ishlab chiqarish asoslari. Fermer xo'jaliklari faoliyatida qonun hujjatlaridan foydalanish tartibi. Fermer xo'jaliklariga yer uchastkalari berish tartibi va undan foydalanish. O'zbekistonda suv resurslaridan foydalanish yo'llari. Fermer xo'jaligida SIUlar faoliyatidan foydalanish. SIUdan foydalanishdagi iqtisodiy munosabatlar. Dehqonchilikda sug'orish usullari va ilg'or texnologiyalar.

Iqtisodiy aloqalar tushunchasi. Shartnoma va uni tuzish yo'llari. Fermer xo'jaliklarining faoliyatidagi muvofiqlashtiruvchi iqtisodiy aloqalar. Fermer xo'jaligida biznes reja va uni tuzish yo'llari. Fermer xo'jaligida bank ishi va kreditdan foydalanish. Fermer xo'jaliklarda davlat ehtiyojlari uchun paxta va g'alla

yetishtirish xarajatlarini kreditlash. Fermer xo'jaligida sug'urta. Fermer xo'jaligida soliq va soliq stavkasi. Buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlar.

### **18. Dehqon xo'jaligining tashkiliy, iqtisodiy va huquqiy asoslari**

Dehqon xo'jaligi tushunchasi, maqsadi, vazifasi, faoliyati va uning yo'nalishlari. Dehqon xo'jaligini tashkil etish. Dehqon xo'jaligining tashkiliy, huquqiy va ishlab chiqarish asoslari. Dehqon xo'jaliklari faoliyatida qonun hujjatlaridan foydalanish tartibi.

Dehqon xo'jaligi tushunchasi, maqsadi, vazifasi, faoliyati va uning yo'nalishlari. Fermer xo'jaligini tashkil etish. Dehqon xo'jaligining tashkiliy, huquqiy va ishlab chiqarish asoslari. Dehqon xo'jaliklari faoliyatida qonun hujjatlaridan foydalanish tartibi. Dehqon xo'jaliklariga yer uchastkalari berish tartibi va undan foydalanish.

Iqtisodiy aloqalar tushunchasi. Shartnoma va uni tuzish yo'llari. Dehqon xo'jaliklarining faoliyatidagi muvofiqlashtiruvchi iqtisodiy aloqalar. Dehqon xo'jaligida biznes reja va uni tuzish yo'llari. Dehqon xo'jaligida sug'urta. Dehqon xo'jaligida soliq va soliq stavkasi. Buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlar.

### **19. Agroklasterlar va ularning tashkiliy, iqtisodiy va huquqiy asoslari**

Agroklasterlarni tashkil etish maqsadi, vazifasi, faoliyati va uning yo'nalishlari. Agroklasterlarning tashkiliy, huquqiy va ishlab chiqarish asoslari. Agroklasterlar faoliyatida qonun hujjatlaridan foydalanish tartibi. Agroklasterlarga yer uchastkalari berish tartibi va undan foydalanish. Agroklasterlarda SIUlar faoliyatidan foydalanish. SIUdan foydalanishdagi iqtisodiy munosabatlar.

Iqtisodiy aloqalar tushunchasi. Shartnoma va uni tuzish yo'llari. Agroklasterlarda biznes reja va uni tuzish yo'llari. Agroklasterlarda bank ishi va kreditdan foydalanish. Agroklasterlarda sug'urta, soliq va soliq stavkasi. Buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlar.

## Foydalaniladigan adabiyotlar

### Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent, O'zbekiston. 2020 y. 29 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, O'zbekiston, 2016. 56 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib – intizom va shaxsiy javobgarlik – xar bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent, O'zbekiston, 2017. – 104 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va halq farovonligini garovi. Toshkent, O'zbekiston, 2017. -48 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida. T., O'zbekiston, 2022.
6. U.Umurzakov., U.Sangirova., I.Yunusov. Ekonomika vodnogo xozyaystva. Uchebnoe posobie. TIIMSX, 2020 g. 339 str.
7. Sultonov A.S., Xudayberganov Z.Ya., Qo'chqorova S.A. Suv xo'jaligi iqtisodiyoti. – Toshkent, 2007. - 310 b.
8. Umurzaqov O'., Toshboyev A., Toshboyev A. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti va menejmenti. – Toshkent, 2008.
9. U.Umurzakov., U.Sangirova. Ekonomika APK. Uchebnoe posobie. TIIMSX 2019
10. Abdug'aniyev A., Abdug'aniyev A.A. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. - T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi, 2006.
11. Berkinov B.B. Institutsional iqtisodiyot: Darslik. 3-nashr, qayta ishlangan. – T.: Iqtisodiyot, 2018. – 256 b.
12. Aliyev Ya.E. Innovatsion iqtisodiyot. - o'quv qo'llanma. – Toshkent, 2019. - 224 b.
13. Aliyev Ya.E. va boshqalar. Iqtisodiy xavfsizlik. – Toshkent, 2020. - 464 b.
14. Sultonov A. va boshqalar. Suv xo'jaligi qurilishi iqtisodi. - o'quv qo'llanma. – Toshkent, 2007. - 250 b.
15. Sultonov A. Va boshqalar. Suv xo'jaligi qurilishi iqtisodi. – o'quv qo'llanma. - TIMI, 2011.
16. Mirzaeva M.S. Ekonomika vodoxozyaystvennogo stroitelstva. – Tashkent, 2009.
17. Salimov B.T., Yusupov M.S. Dehqon va fermer xo'jaliklari iqtisodi (o'quv qo'llanma). – T.: TDIU, 2009. - 300 b.
18. Umurzaqov O'., Toshboyev A., Toshboyev A. Fermer xo'jalgi iqtisodiyoti. – Toshkent, 2008.

19. Olimjonov O. va boshqalar. Fermerlik faoliyatining huquqiy va moliyaviy asoslari. – T.: O‘zbekiston, 2005. - 212 b.

20. Fermerlik faoliyatining huquqiy va moliyaviy asoslari. - T. Universitet, 2005. – 212 b.

21. Choriev Q., Berkinov B. Dehqon va fermer xo‘jaliklarini tashkil etish va yuritishning huquqiy–me‘yoriy asoslari. - T.: Sharq, 2002.

22. Dehqon va fermer xo‘jaliklarida shartnoma munosabatlari. – T.: Sharq, 2002. - 47 b.

23. Dehqon va fermer xo‘jaliklarida sug‘urta tizimi. – T.: Sharq, 2002. - 316 b.

24. Husanov R., Qosimov M. Dehqon xo‘jaligini yuritishning ilmiy va amaliy asoslari. - T.: Cho‘lpon, 2000.

25. Farmonov T.X. O‘zbekistonda fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish istiqbollari. – Monografiya. - T.: Yangi asr avlodi, 2004. - 143 b.

26. Popov N.A. Ekonomika selskogo xozyaystva. Uchebnik. - M.: Delo i Servis, 2000.

27. Hakimov R., Otaqulov M., Yusupov E., Yusupov M.S. Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti. – O‘quv qo‘llanma. - T.: TDIU, 2004. 160 b.

28. Hakimov R. Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti. – Darslik. – T.: Iqtisodiyot, 2007. – 364 b.

29. Minakov I., Kulikov N., Sokolov O. Ekonomika otrasley APK. – M.: Kolos, 2008. – 464 s.

30. Salimov B.T., O‘roqov N. Qishloq xo‘jaligi infratuzilmasi iqtisodiyoti. – T.: TDIU, 2004. - 112 b.

31. Monografiya - Salimov B.T., Salimov B.B. “Kichik sanoat zonalarini barpo etish va rivojlantirishning tashkiliy iqtisodiy asoslarini takomillashtirish”. – T.: Iqtisodiyot, 2020.

32. Monografiya - Aliyev Ya.E. “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, agrolesurslar va agroxizmatlar bozorlari rivojlanishi mutanosibligini ta‘minlash yo‘nalishlari”. – T.: Iqtisodiyot, 2017.

33. Monografiya - Aliyev Ya.E. “Agrar bozorni rivojlantirishning ilmiy-amaliy asoslarini takomillashtirish”. – T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2019.

34. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtisodiy tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori. Xalq so‘zi. 2018 yil 8 may.

35. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Faol tadbirkorlik va innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori. 2018 yil 8 may Xalq so‘zi.

36. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokraturasi huzuridagi Agrosanoat majmui va oziq-ovqat xavfsizligi ta'minlanishi ustidan nazorat qilish inspeksiyasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori 2018 yil 7 may.

37. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 23 fevradagi "Tadbirkorlikning ishlab chiqarish maydonlaridan foydalanishlarini yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.

38. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori 2018 yil 22 may Xalq so'zi.

39. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kapital qurilishda loyiha va qurilish ishlarini amalga oshirish tartibini optimallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni. 2018 yil 23 may.

40. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 28 fevraldagi "Paxta xom ashyosi va boshqali don yetishtirishni moliyalashtirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.

41. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 26 apreldagi "Fermar, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.

42. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 17 apreldagi "Qishloq va suv xo'jaligi davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.

43. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Murojatnomasi. "Yurt ravnaqi, xalq farovonligiga munosib hissa qo'shaylik" O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi xodimlari kuniga bag'ishlangan tantanali marosimda ishtrok etgan agrar soha vakillarining respublikamiz mirishkor dehqonlari, fermerlar va soha xodimlariga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Murojaati 2017 yil dekabr.

### **Qo'shimcha adabiyotlar**

1. Edition Principles of Agricultural Economics By Andrew Barkley, Paul W. Barkley Copyright Year 2020.

2. Yashevoy G.A., Granberg A.G. Klasternaya politika v ekonomike Rossii // Natsionalnye prioriteti Rossii. 2009. № 1, yanvar-iyun. S. 116–130.

3. Saidova D.N., Rustamova I.B., Tursunov Sh.A. "Agrar siyosat va oziq-ovkat xavfsizligi". O'quv qo'llanma. T.: "O'zR Fanlar Akademiyasi Asosiy kutubxonasi" bosmaxonasi nashriyoti, 2016. –75 b.

4. Aliyev Ya.E. Innovatsion iqtisodiyot. - o'quv qo'llanma. – Toshkent, 2019. - 224 b.

5. Aliyev Ya.E. va boshqalar. Iqtisodiy xavfsizlik. – Toshkent, 2020. - 464 b.

6. Salimov B.T., Salimov B.B. “Kichik sanoat zonalarini barpo etish va rivojlantirishning tashkiliy iqtisodiy asoslarini takomillashtirish” Monografiyasi – T.: Iqtisodiyot, 2020.

7. Berkinov B.B. Institutsional iqtisodiyot: Darslik. 3-nashr, qayta ishlangan. – T.: Iqtisodiyot, 2018. – 256 b.

#### **Internet manbalari**

1. [www.mineconomy.uz](http://www.mineconomy.uz)- O‘zbekiston Respublikasi Iqsodiy tarqqiyot va qambag‘allikni qisqartish vazirligi sayti.

2. . [www.agro.uz](http://www.agro.uz)- O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi Vazirligi sayti.

3. . [www.api.uz](http://www.api.uz)- O‘zbekiston Respublikasi matbuot va axborot agentligi sayti.

4. . [www.tsue.uz](http://www.tsue.uz).- Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti sayti.

5. . [www.omad.uz](http://www.omad.uz)– Biznes rivoji uchun axborot portali.

6. <https://www.agroxxi.ru/analiz-rynka-selskohozjaistvennyh-tovarov/mirovye-i-rossiiskie-trendy-v-pererabotke-plodov-i-ovoschei.html>

7. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)